

BOSHLANG'ICH SINFLARDA OTLARDA BIRLIK VA KO'PLIK MAVZUSINI O'TISHDA QO'SHIMCHANI TEJAB ISHLATISHNI O'RGATISH

Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna
BuxDPI o'qituvchisi

Haydarova Adiba Anvarovna
BuxDPI magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda otlarda birlik va ko'plik mavzusini o'tishda qo'shimchani tejab ishlatishni o'rgatish usullari o'rganib chiqilgan hamda maktab darsliklaridagi mashq va topshiriqlarda ortiqcha qo'llanilgan ko'plik qo'shimchasi (-lar) ga misollar keltirilgan.

Kalit so'z : tejamkorlik, o'zbek tili grammatik qurilishi, birlik, ko'plik, ko'plik qo'shimchasini tejab ishlatishga doir topshiriqlar.

IN PRIMARY SCHOOLS STUDING ECONOMICAL ADDITIONAL IN SINGULAR AND PLURAL THEMES TO NOUNS

Haydarova Adiba Anvarovna

2 level masteis student of the pedagogical institute of Bukhara state University, majoring in theory and Methodology of education (primary education)

Annotatsion : In this article, in primary classes in nouns singular and plural and studying economical to additionals and in school's lesson examples to plural additionals.

Key words : economical, construction to uzbek grammatical language, singular, pluraland exercises to economical plural additional.

Sho'ro davrida o'zbek tilining grammatik qurilishi rus tili grammatikasi qolip va andozalari asosida o'rganildi. Natijada o'zbek tili grammatikasining o'ziga xos xususiyatlari yoki e'tibordan chetda qoldi yoki rus tiliga xos xususiyat o'zbek tiliga ko'chirildi. O'zbek tili grammatik qurilishining bosh xususiyati tejamkorlik bo'lib, tejamkorlik deganda eng avvalo gap, matnda so'z va qo'shimchani tejab ishlatish nazarda tutiladi. Biroq amaldagi oliy o'quv yurti va o'rta maktab ona tili darsliklarida til hodisalari talqinida tejamkorlik haqida ma'lumot berilmagan. Natijada radio, televideniya, matbuotdagi nutq noo'rin, noto'g'ri qo'llanayotgan so'z va qo'shimcha bilan to'lib ketdi. Bu holni madaniy o'simlikka zarpechak chirmashib olishiga o'xshatish mumkin. Zarpechakdan xalos qilinmasa o'simlik sarg'ayib, bora-bora

quriganidek, ortiqcha unsurlardan tozalanmasa, tilning ham sofligiga putur yetib, joziba, ta'sir kuchi zaiflashib ko'rki yo'qoladi.

Buning oldini olish uchun o'zbek tili grammatik hodisalarni tejamkorlik asosida talqin qilish va bu talqinlarni maktab ona tili darsliklariga kiritish zarur.

Hozir –lar ko'plik qo'shimchasini qo'llashda tejamkorlikka rioya qilingan qilinmaganini ko'rib chiqamiz. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarda mazkur qo'shimchaning tejab-tejalmasligi son kategoriyasi talqini bilan bog'liq.

Bir darslikda ko'p predmetni bildirgan so'zlar kimlar?, nimalar? So'rog'iga javob bo'ladi deyilsa, ikkinchisida predmet nomini bildirib kim?, kimlar? Yoki nima? nimalar? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar ot deyiladi. Otlar birlikda (daraxt) va ko'plikda (daraxtlat) qo'llanadi, deb ko'rsatiladi.

Ko'rinadiki, otning miqdor ma'nosi yuqori sinf darsliklaridek A.G'ulomov nazariyasiga asosan talqin qilinib rus tiliga xos xususiyat qoida qilib berilgan. Bunday talqin o'zbek tiliga mos kelmasligi qoidaning o'zidan ko'rinib turibdi. O'zbek tilida tub ot faqat birlik, -lar qo'shilgan ot faqat ko'plik bildirmaydi. Shu inobatga olinsa mazkur qoidada so'roqlari o'rniga so'rog'i shuningdek boshqa o'rinlarda ko'plik ifodalash uchun tub ot qo'llanganining sababi oydinlashadi,

Maqolda tub ot yaxlit ko'plikni bildiradi: **Odobli bola elga manzur.** Ko'plik barcha so'zidagidek bo'lganidan barcha odobli bola ma'nosi anglashilib –lar tejaladi.

Ko'plik mantiqan ayon bo'lsa –lar tejalib tub ot qo'llanishiga misol darsliklarda uchraydi: **Unli tovush undosh tovushdan nimasi bilan farq qiladi.** Bitta tovush nazarda tutilmagani o'qituvchigagina emas, o'quvchiga ham ayon.

Ko'plik gapdagi biror vositadan anglashilsa –lar tejalib tub ot qo'llanadi: **Hamma yoqni barg qopladi. Otasi unga ko'k, qizil shar berdi.** Ko'plik birinchi misolda olmoshdan, ikkinchi misolda sifatning takroridan anglashiladi. Quyidagi misolda bu vazifani ot va fe'l bajaradi: **Tinchlik so'zini bo'g'inga bo'lib talaffuz qiling.**

Bitta otda qo'llangan –lar ikkinchisidan ham ko'plik anglashilishiga yordam beradi. **Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering. So'roq yordamida otlarni aniqlang. Egalik qo'shimchasini olgan otlarni aniqlang.**

Tub otlarning ana shu xususiyati e'tirof etilsa darsliklarda ko'p o'runda –lar ortiqcha, noo'rin qo'llangani ma'lum bo'ladi: **Tovushlar yozuvda harflar bilan belgilanadi. So'zlarni bo'g'inlarga ajratib yozing. Otlardan sifatlar yasang.** Bu misollarda –lar ikkinchi otda tejalasa, quyidagi misollarda birinchisida tejaladi: **So'roqar yordamida birlik va ko'plikdagi otlarni aniqlab ayting. So'roqlar yordamida sonlarni toping.** Ayrim gapda –lar ikki marta ortiqcha ishlatilgan: **So'roqlar o'rniga otlarga mos sifatlar topib ko'chiring.** Bu misolda –lar umuman qo'llanmasa bo'ladi. Chunki mashqda so'roq so'z va sifat kabi ot ham bitta emas.

Ko'plik otning o'zidan anglashilganda ham –lar tejalishi kerak: **Shudgorlangan yerda qurt-qumursqalar yaxshi ko'rinadi. Yer zararli hasharotlardan tozalanadi.** Ikkinchi gapda ko'plik qo'shimcha (-ot) bilan ifodalangan bo'lsa, birinchisida takror yordamida namoyon bo'ladi.

-lar qo'shimchasi tejash maqsadga muvofiq bo'lganda o'rin bilan sondan ham foydalansh kerak. Quyidagi misolda gap so'zidan oldin ikki-uchta yoki uch-to'rtta qo'llansa, -lar tejalib vazifa oydinlashadi : **So'zlardan gaplar tuzing.**

Aniqllovchi son va boshqa miqdor bildiruvchi so'zdan ifodalanganda –lar tejalib tub ot qo'llaniladi. **Nechta gap, ikkita gap. Uch-to'rtta gap. Bir necha gap.**

Ko'p holda ana shu qoidaga rioya qilinmaganidan –lar ortiqcha qo'llangan: **to'rtta so'zlar, hamma bolalar, ko'p narsalar, turli tillarda, minglab so'zlar, ayrim so'zlar, turli mevalar, yuzlab kishilar, bir gala chiyabo'rilar.**

Aniqllovchi miqdor bildirmaydigan so'zdan ifodalanganda –lar aniqlanmishda tejaladi. **Tanaffusda derazalarning darchalarini ochib qo'yamiz.** Bayon nohissiy bo'lganidan quyidagi misollarda ham aniqlanmishga –lar qo'shilmaydi: **Yo'lda ularning ovqatlari tugab qoldi. G'o'zalarning barglari so'liy boshladi. Daraxtlarning barglari sarg'ayadi.**

Quyidagi gaplarda –lar aniqlovchida emas, aniqlanmishda tejalishi kerak edi. **Oyning nomlarini yozing. Oyning nomlarini fasllarga bo'lib yozing. Shahar nomlarini alfavit tartibida ayting.**

Bayon hissiy bo'lsa –lar aniqlanmishda ham tejalmaydi: **Daraxtlarning oppoq shoxlari yarqiraydi. Shabadada daraxtlarning yashil yaproqlari tebranadi.**

Uyushiq ega va ko'makchili to'ldiruvchida –lar qo'shimchasining tejab-tejalmasligi alohida izohlanishi kerak. Bayon nohissiy bo'lsa –lar ba'zan tejaladi: **Qo'y, qo'zi yaylovda o'tlaydi.** Aksariyat hollarda –lar oxirgi so'zga qo'shiladi: **O'lkamizda yalpiz, isiriq bangidevona, erman va boshqa o'simliklar o'sadi.**

O'zbek tilining xususiyatiga to'g'ri kelmaganidan –lar qo'shimchasining rus tilidagidek tejalmay qo'llanishini to'g'ri deb bo'lmaydi: **Javonda o'quv qurollari: daftarlar, kitoblar, ruchkalar, har xil qalamlar saqlanadi.** Bu gapda –lar faqat umumlashtiruvchi so'zga qo'shiladi. Quyidagi gapda uyushiq to'ldiruvchining oxirgisiga qo'shilib egada ham tejaladi: **Kosmonavtlar, quruvchilar, dengizchilar haqida markalari bor.** Bayon nohissiy bo'lib barisi degan ma'no anglashilganidan quyidagi misolda uyushiq eganing oxirgisida ham –lar qo'shilmaydi. **Qaldirg'ochlar, uzunqanotlar, ko'kqarg'alar issiq o'lkalarga uchib keta boshladi.**

Barisi degan miqdor ma'nosi tub otga xos bo'lganidan quyidagi uyushiq bo'lakda –lar ishlatilmaydi: **Tovushlar va harflar.** Boshqa sarlavhalarda ham –lar tejalasa to'g'ri bo'ladi. Ko'plik otning o'zidan anglashilganidan quyidagi gapda –lar uyushiq eganing birinchisida ham tejaladi: **Sabzavotlar va qovun-tarvuz yig'ib olindi.**

Uyushiq bo'lak oldida miqdor bildiruvchi so'z qo'llansa –lar tejalishi kerak: **Chiroq atrofida juda ko'p kapalak va parvonalar uchib yuribdi. Bu gul to'g'risida ko'plab qo'shiqlar, afsonalar yaratilgan.**

Bayon hissiy bo'lganda ba'zan –lar tejalib uyushiq bo'lakning oxirgisiga qo'shiladi:

Nizom deydi: - Kecha va kunduzlar!

Olim deydi: - Odam, jonivor, daraxtlar!

Bu she'rda his-tuyg'u –lar va ohang bilan ifodalangan bo'lsa quyidagi misolda ta'kid faqat vositasida ifoda etilgan: **Qish. Qor yog'yapti. Kun sovuq. Keng dalalar, mevali bog'lar, baland tog'lar oq choyshabga o'ralgan ko'rinadi.**

Egadan ko'plik anglashilsa kesimda –lar tejaladi. **Bu qonunga xilof ish tutgan kishilar xato qiladi. Shu payt uchta a'lochi o'quvchi qo'shni maktabdan bizni yangi yil bilan tabriklash uchun kirib keldi.** Bunday qo'llanish she'rda ham uchraydi: **Bolalar ahil bo'lsa, Shudir bizning baxtimiz.** Lekin nazariya taqozo qilganidek darsliklarda bu qoidaga aksar rioya qilinmagan. Oqibatda bolalar, o'quvchilar oti ular olmoshiga bog'langan fe'l kesimda 30-40 martadan –lar ortiqcha ishlatilgan. Boshqa otlar ham qo'shib hisoblansa har qaysi darslikda yuzlab o'rinda tejamkorlikka rioya qilinmaganligi ma'lum bo'ladi.

Yuqori sinf darsliklaridagidek moslashuv qoidasiga qat'iy rioya qilinmaganidan ko'plikdagi egaga bog'langan ot kesimda ham –lar tejalagan. **Bular qanday hayvonlar? Bular qanday gaplar? Choynak, payola, stakan – idishlar. Do'ppi, palto, ko'ylak – kiyimlar.** Bu gaplarni o'qib katta arava qaydan yursa kichik arava shundan yurar ekan-da deging keladi. Aks holda kesimga qo'shilgan –lar ruscha gap soyasi ekanligini payqab undan voz kechish u qadar qiyin emas edi.

Ona tilining xususiyati ega ko'plikda bo'lganda kesimda –lar tejalganidek kesimdan ko'plik anglashilganda egada ham –lar tejalishini taqozo etadi: **Nega harf soni ko'p? Istagimiz – do'st ko'paysin.** Lekin ko'p o'rinda bu qoidaga rioya qilinmagan: **Fermada sigirlar ko'p. Qaynamagan suvda zararli mikroblar ko'p bo'ladi. Unli tovushlar nechta? Bog'da gilos, olxo'ri daraxtlari ko'p. O'ktamning stolida silliq qilib qo'yilgan savag'ichlar, taxtachalar, yelim, iplar qalashib yotardi. Shoir she'rlar, g'azallar yozaveribdi.**

Bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun maktab darsliklariga so'z va qo'shimchalarning tejamkorligi tushunchasi kiritilishi kerak. Zero, o'sib kelayotgan yosh avlod o'zbek tilining naqadar boy, jozibador til ekanligini his etishi uchun bu tilni o'z nutqida chiroyli, bekam-ko'st, ortiqcha unsurlarsiz ishlatishni bilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Адизова Нигора Бахтиёровна. Оқсоқол Бува, Бола Ва Хон Образлари Қизикмачоқлар Талқинида. Journal of innovations in social sciencesjournal of innovations in social sciences. 02 Issue: 01 | 2022.

2. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). Www.ejlss.indexedresearch.org Volume 14, 2022 |
3. Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo‘llanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
4. AB Rakhmonovich, AN Bakhtiyorovna. THE MAIN MOTIVES AND TASKS OF CHILDREN’S FOLKLORE. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)
5. Нигора Бахтиёровна Адизова, Ҳилола Худойбердиева. ҚИЗИҚМАЧОҚЛАРДА ОҚСОҚОЛ ВА ХОН ОБРАЗЛАРИ. Scientific progress
6. Nigora Baxtiyorovna Adizova. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirishda mustaqil ishlarning o‘rni va ahamiyati. Scientific progress
7. NB Adizova, M Raimqulova. Use of alisher navoi’s spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123
8. . NA Bakhtiyorovna, NA Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children’s poet. Middle European Scientific Bulletin
9. AN Bakhtiyorovna, E Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545
10. AN Bakhtiyorovna, AN Bakhtiyorovna. The role of the fun genre in children’s spiritual development. Middle European Scientific Bulletin 4, 38-40
11. Adizova Nigora, Adizova Nodira. Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari. Conferences.
12. Jumayev, Ruzokul. "Sadriddin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 23.23 (2022).
13. Jumayev, Ruzokul. "САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АРАБЧА ТОПОНИМЛАР." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 23.23 (2022).
14. Xoliqulovich J. R. SADRIDDIN AYNIYNING “ESDALIKLAR” ASARIDA ANTROPONIMLARNING LEKSIK QATLAMLARI: Jumayev Ruzokul Xoliqulovich Vuxoro davlat universiteti katta o‘quvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 3. – С. 34-37..
15. Xoliqulovich, Jumayev Ruzokul. "Using anthropometric units in" Esdaliklar" by Sadriddin Ayniy." European Journal Of Innovation In Nonformal Education 2.2 (2022): 295-298.
16. Jumayev, Ruzokul. "SADRIDDIN AYNIYNING “ESDALIKLAR” ASARIDA OYKONIM TURLARINING QO‘LLANISHI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 7.7 (2021).

17. Jumayev, Ruzokul. "САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САНЪАТИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 2.2 (2021).
18. Xoliqulovich, Jumayev Ruzokul. "Influence of Sadriiddin Aini life and works in spiritual and moral development of students." Middle European Scientific Bulletin 11 (2021).
19. Jumayev, Ruzokul. "Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 2.2 (2020).
20. Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA AGORONIMLARNING LEKSIK TANIILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
21. Jumayev R. SADRIDDIN AYNIIY ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
22. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДИИЙ) ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.